

TIL VA ADABIYOT
TA'LIMI

FILOLOGIYA

VA PEDAGOGIKA

2026-yil
8 (27)-son

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

RU

ФИЛОЛОГИЯ
И ПЕДАГОГИКА

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И ШКОЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

PHILOLOGY
AND PEDAGOGY

EN

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL
OF THE MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

"Filologiya va pedagogika" ilmiy-metodik jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



**TIL VA ADABIYOT
TA'LIMI**

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan 2024-yil
19-avgustda 360240-raqami
bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

**2026-yil
8 (27)-son**

e-ISSN 3060-4885

MAS'UL MUHARRIR

Nargiza Sotvoldiyeva

MUHARRIRLAR:

Shahobiddin Rasulov

Najmiddin Ermatov

Emma Torosyan

Shaxina Muxamedjanova

SAHIFALOVCHI

Ziyoda Komilova

Tahririyat manzili:

100011, Toshkent shahri

Navoiy ko'chasi 30-uy.

Telefon: (55) 510-28-44,

(77) 358-57-67

e-mail: til_adabiyot@umail.uz

veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Materiallar

@FilologiyaPedagogikaBot

orqali qabul qilinadi.

Elektron jurnal 30.04.2026 da

nashr etildi.

MUASSIS

O'zbekiston Respublikasi

Maktabgacha va maktab

ta'limi vazirligi

"Til va adabiyot ta'limi"

davlat korxonasi

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI**

TAHRIR HAY'ATI:

10.00.00 – FILOLOGIYA

E'zozxon Karimova

*O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha
va maktab ta'limi vaziri*

Farhod Boqiyev

*O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab
ta'limi vaziri o'rinbosari*

Azizbek Turdiyev

*O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi
vaziri o'rinbosari*

Farrux Jabborov

*"Til va adabiyot ta'limi" –
"Преподавание языка и литературы" –
"Language and literature teaching"*

Baxtiyor Mengliyev

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti
tadqiqotchi-professori,
filologiya fanlari doktori*

Baxtiyor Doniyorov

*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Nurafshon filiali professori,
filologiya fanlari doktori*

Anatoliy Lixodziyevskiy

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
professori, filologiya fanlari doktori*

Oksana Gibraltarskaya

*O'zbekiston Milliy universiteti professori,
filologiya fanlari doktori*

Sherzod Atamuradov

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Mohichexra Boltayeva

*O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
dotsenti, pedagogika fanlari doktori*

Muxtarbay Kurbanov

*Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti,
filologiya fanlari doktori*

Anvar Bo'ronov

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti, ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasida
dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Dilmurod Teshaboyev

*Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim
uslubiyati kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari doktori*

Gulhida Ikromova

*Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim
uslubiyati kafedrasida katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Aziza Axmedova

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
o'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
katta ilmiy xodimi*

Iroda Nasimova

*O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Qozoqboy Yo'ldoshev

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori*

G'ofir Hamroyev

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti
tadqiqotchi-professori, pedagogika fanlari doktori*

Xadicha Muxitdinova

*O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti professori, pedagogika fanlari doktori*

Gulnora Mansurova

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti,
falsafa fanlari doktori*

Sevara Ziyayeva

*O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori*

Indira Narkulova

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Abduvali Daminov

O'zbekiston Milliy universiteti ijtimoiy fanlar

*fakulteti huquqiy fanlar kafedrasida katta
o'qituvchisi*

Gulnoza Uzokova

*Qarshi davlat universiteti professori,
pedagogika fanlari nomzodi*

Lola Akramova

*Toshkent davlat tibbiyot universiteti
o'zbek tili va xorijiy tillar,
pedagogika kafedrasida dotsenti*

Zulfiya Ortiqova

*Farg'ona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim
uslubiyati kafedrasida katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori*

Pulotjon Qaxorov

*Samarqand davlat universitetining
Urgut filiali dotsenti*

Dilafroz Asqarova

*Farg'ona davlat universiteti maktabgacha
ta'lim kafedrasida o'qituvchisi, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining
2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo'yicha
doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.*

M U N D A R I J A

10.00.00 – FILOLOGIYA

Dilshod Karimov. Soʻz sanʼati fidoyisi	4
Shahodat Sagdiyeva. Oʻzbek–ingliz muloqot madaniyatida kommunikativ toʻsiqlar va ularni bartaraf etish omillari	8
Dilovar Ermetova. Fransuz va oʻzbek komik matnlarida leksik – semantik nomuvofiqlik: qiyosiy lingvopoetik tahlil	11
Zulfiya Najimova. “Deonimlashuv” atamasining tilshunoslikdagi oʻrni.....	13
Xushbaroy Bekchanova. Ingliz va oʻzbek tillarida modalitetning qiyosiy tahlili: semantik va pragmatik yondashuv.....	16
Shohsanam Bobojonova. Kognitiv leksikografiya yondashuvi asosida “axloq” konseptining konseptual lugʻatdagi talqini.....	18
Sohiba Murodullayeva. Tilshunoslikda “konsept” tushunchasi va uning tadqiqi.....	20
Nilufar Rajabova. “Onomastika” tushunchasi, tarkibi va turlari.....	22
Muhayyo Yoʻldosheva. Oʻzlikni anglash ehtiyoji haqida mulohazalar	24
Gulhayo Abdugʻaffarova. An Axiolinguistic Analysis of Cultural Values in English Paremiological Units.....	26
Feruz Aliqulova. Koreys tilida enantiosemiya hodisasining paydo boʻlish omillari	28
Shermuhammad Amonov. Hamza Hakimzoda Niyoziy arxivi katalogi nashri tahlili	31
Gulmira Bozorova. Medical Terminology at the Intersection of Knowledge, Discourse and Social Practice	33
Bakhshanda Davronova. Ethnic Stereotypes and Multicultural Identity Construction in Zadie Smith’s “White Teeth”.....	35
Shahnoza Tairova. A Cross-cultural Analysis of Phraseological Units Featuring the Component “Black”.....	37
Feruz Tolibxonova. “Yulduzli tunlar” romanida Qutlugʻ Nigorxonim obrazi	44
Gulhayo Abdugʻaffarova. An Axiolinguistic Analysis of Cultural Values in English Paremiological Units.....	46
Zarnigor Djalilova, Maftuna Abdurasulova. Linguistic Analysis Of Blending on Social Media Content	48
Dilrabo Xusnitdinova. Linguoculturological Aspects of Translation: Strategic Approaches to Achieving Communicative Equivalence in Intercultural Discourse	50
Gulrukh Yusupova. Theoretical Problems of Translation: the Case of English-Russian Languages	52
Ferangiz Bekniyozova. “Kinodiskurs” atamasining lingvistik hamda ekstralingvistik tamoyillari	54
Hikoyat Boboqulova. Gʻoyibiy gʻazallarida diniy-falsafiy va ijtimoiy mazmundagi leksik birliklar	56
Nilufar Boboqulova. Ingliz va oʻzbek tilshunosligida maqollarni oʻrganish bilan bogʻliq nazariy masalalar.....	58
Mehriniso Choriyeva. Abdurahmon Tamkin asarlarining yaratilish tarixi va janri tarkibi	60
Mastura Elmanova, Oysuluv Muhammadova. “Joyce Carol Oatesning the Girl With the Blackened Eye” asarida travma, jamiyat va parchalangan shaxsiyatning kesishuvchi ziddiyatlari	62
Sanam Jiyanova. Sheʼriyatda metafora, falsafiy mazmun va soʻz falsafasi uygʻunligi (Sirojiddin Sayyid ijodi misolida).....	64
Muazzam Dedaxanova. Jinoyat izlarini aniqlashda detektiv film va badiiy asarlarning roli	66
Manzura Mastonova. Oʻzbek adabiyotida Hotami Toy obrazi va qozoq folkloridagi “Hotam Toy saxiy” hikoyasi tahlili.....	69
Zarif Quvonov. Alisher Navoiy “Xamsa”sining yangi talqinlari va ilmiy interpretatsiyalari.....	71
Nilufar Qahhorova. Shukur Xolmirzayev romanlarida davr va shaxs fojiasi	73
Dilafroʻz Jabborova, Dildora Rustamova. Oʻzbek adabiyotida ayol ruhiyati talqini	75
Bahora Rajabova. Togʻay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasida frazeologik birliklarning kombinatsiyasi va qoʻllanishi.....	77
Xulkar Raximboyeva. Iyerarxik tahlil jarayonida soʻz turkumlarini teglash	79
Sarvinov Raximova. Gʻijduvon kashtachilik maktabining oʻziga xosligi va ijtimoiy hayotimizdagi roli.....	83
Zulfizar Saidova, Shahnoza Ramazonova. Abdulla Qahhor hikoyalarida inson ruhiy holatini ifodalovchi frazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari.....	85
Shohida Murtozayeva. Milliy hunarmandchilikda kasanachilik terminologiyasining struktur-semantik va etimologik tadqiqi (Surxondaryo vohasi materiallari misolida)	87
Shohrux Nuraliyev. Nazar Eshonqul hikoyalarida ijtimoiy va psixologik muhit uygʻunligi.....	89
Madina Tursunova. Kristofer Marlning “Buyuk Temur” tragediyasida mifologik sujet va obrazlar	91
Zahro Xaydarova. Tarixiy va badiiy asarlarda Oʻgʻuzxon siyмосi	93
Lobar Yakubova. Pul va boylikka oid leksik birliklarning ingliz va oʻzbek tillaridagi semantik xususiyatlari.....	95
Olmaxon Zaripbayeva. Najmiddin Ermatov sheʼrlarida oʻzlikni anglash masalasi.....	97
Eʼtibor Yaxshiyeva. Pedagogik terminlar tizimidagi ekvonomik munosabat.....	99
Шахноза Абдувахидова, Елена Попова. Эволюция образа ребёнка в русской художественной литературе XIX–XX веков	101
Шахло Алимарданова. Соотношение литературных и диалектных дифференциальных форм в русском языке.....	103
Алина Габайдулина, Эльвина Алиева. Ассоциативный эксперимент как метод выявления семантики онимов.....	105
Оксана Гибралтарская. Актуальные проблемы русской филологии	108

Shermuhammad AMONOV,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori v.b.
filologiya fanlari doktoriHAMZA HAKIMZODA NIYOZIY ARXIVI KATALOGI
NASHRI TAHLILI

Annotatsiya. Maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziy shaxsiy arxivi katalogining nashr etilishi va undagi hujjatlarning holati tahlil qilinadi. Muallif arxivdagi ayrim she'riy matnlarni shoirning "To'la asarlar to'plami" bilan qiyoslaydi, matniy farqlarni aniqlaydi va arxiv hujjatlarini zamonaviy talablar asosida qayta tadqiq etish zaruriyatini asoslaydi.

Kalit so'zlar: Hamza, she'riyat, matnshunoslik, katalog, hujjat, nashr.

Annotation. The article analyzes the publication of the catalog of Hamza Hakimzoda Niyazi's personal archive and the condition of the documents stored therein. The author compares certain poetic texts from the archive with the poet's "Complete Works", identifies textual discrepancies, and justifies the need to re-examine archival documents based on modern requirements.

Keywords: Hamza, poetry, textual studies, catalog, document, publication.

Аннотация. В статье анализируется издание каталога личного архива Хамзы Хакимзаде Ниязи и состояние хранящихся в нем документов. Автор сопоставляет некоторые поэтические тексты из архива с «Полным собранием сочинений» поэта, выявляет текстологические расхождения и обосновывает необходимость пересмотра архивных документов на основе современных требований.

Ключевые слова: Хамза, поэзия, текстология, каталог, документ, публикация.

Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodiy merosi, xususan, she'riyati haqida qimmatli ma'lumotlarni beruvchi ko'plab manbalar hozirda O'zbekiston FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyida saqlanayotgan "Hamza arxivi hujjatlari"dir. Ushbu arxivda saqlanayotgan hujjatlar haqida ma'lumot beruvchi "Hamza Hakimzoda Niyoziy arxivining katalogi" ham chop etilgan [5: 456].

Hujjatlar bilan tanishishda shoir arxivining katalogi alohida ahamiyatga ega. Boisi, katalog ancha oldin nashrga tayyorlangan. Hozirga kelib ko'plab hujjatlar sifatida pasaygan, yozuvi xiralashgan, ayrimlari hatto o'qib bo'lmaydigan holga kelgan. Masalan, arxivda Sharif Rizo 1939-yil 3-martda ko'chirgan uchta she'r matni bor. Bu she'rlar lotin yozuvida mashinkada terilgan. Bular arxivda ketma-ket, ya'ni №87, №88, №89 raqamlari bilan saqlanadi.

87-raqamli hujjat "Ozod xotin-qizlar qo'shig'i" deb nomlanib, she'r quyidagi maqta' bilan yakunlanadi:

*Och ko'zing, olamga boq, insonlig'ing izhor qil,
Bu taraqqiy davridur, biz ham tamaddunlashamiz.*

36 misradan iborat she'r matni birmuncha xiralashgan. She'rning oxirida "Bu she'r birinchi marta qo'lyozmadan bosilayotir" degan izoh bor. Ushbu izohlarni siyohda yozilgani sababli o'qisa bo'ladi.

88-raqamli hujjat ozodlik qurbonlariga bag'ishlangan "Uzilgan chechaklar" sarlavhali she'rdir. Ushbu she'r 10 band, 74 misra bo'lib, 8 bandi sakkizlik (musamman), oxirgi 2 bandi beshlik (muxammas) usulida yozilgan. Mazkur she'r matnining xiralashib ketganini katalog noshirlari ham ta'kidlaydi. Ushbu hujjat jami 3 varaq. Izohda aytilishicha, bu dostonchaga Hamzaning o'zi kuy yozgan. Varaqning ayrim joylari yirtilib qolgan.

89-raqamli hujjat sarlavhasi "Muborak" deb nomlanadi. She'r 22 misrali. Sakkizinchi misrasi mashinkalash vaqtida tushib qolib, keyin qo'lda hoshiyaga yozib qo'yilgan. Katalog noshirlari bu matnning ham o'qib bo'lmas holda ekanini aytib o'tgan.

Bu holni shoirning lirik merosi saqlanayotgan arxivdagi deyarli barcha hujjatlarda ko'rish mumkin. Chunki hujjatlardagi she'rlar duch kelgan narsaga (masalan, kitob muqovasi, gazeta hoshiyasi, taklifnomalarga) qalamda yozilib ketilavergan. Natijada varaqlar sarg'ayib, matn o'qib bo'lmaydigan darajaga kelib qolgan. Hujjatlardagi she'rlarning barchasi shoirning qoramalaridir. Katalog noshirlari "hujjat yaxshi saqlangan" deya e'tirof etgan 90-raqamli hujjat ham hozirda ancha sifatsiz holga kelgan. Ular

matnini o'qish qiyinligining yana bir sababi, she'rlar yozilib, so'ng o'chirilib tuzatilgan yoki batamom o'chirib tashlanganligidir. Bu hujjatdagi she'r matni 27 misra bo'lib, u ham zikr etilgan nuqsonlardan xoli emas. She'rda Hamza yetim bolalar uchun o'zi ochgan "Doru-l-aytom"ga zamondoshlaridan yordam so'rab:

محمد خاطریدن قول و سوز ایتنینگ اهل وطن
یتیملارنی سیلانگ باشین آچینگ
مکتبلارنی بسیار

– deya murojaat qiladi. Matn arab imlosi asosidagi eski yozuvda. Bu she'r shoirning "To'la asarlar to'plami"da berilgan bo'lib, yuqoridagi bayt quyidagicha tabdil qilingan:

*Muhammad xotiridin qo'l suzung himoyatga
Yetimlarni silang boshin, oching maktablarni bisyor [4: 233].*

Ko'rinadiki, baytning birinchi misrasi asliyatga muvofiq kelmaydi. Asliyatga ko'ra, birinchi misra "Muhammad xotiridin qavlu so'z ayting, ahli Vatan" tarzida bo'lishi zarur. She'r matla'si asl manbada, qolaversa, nashr etilgan shoir arxivining katalogida ham quyidagicha:

قولینگیزدن کیلانچه رحم ایلانگ یتیم اولاده
یاردم ایلانگ دار الایتامه

"To'la asarlar to'plami"da esa bunday:
*Qo'lingizdan kelganicha rahm aylang Doru-l-aytoma,
Tilak bo'lsa xaloyiq haq rizoi ravnaq isloma [4: 233].*

"To'la asarlar to'plami"da bu she'r 17 misra, asl manbada esa 21 misrani tashkil qiladi (katalogda ham 21 misra deyiladi).

Ta'kidlash kerakki, arxivdagi matnlarning barchasi ham arab imlosida emas. Masalan, 103- hujjatda "kel ertaroq" (katalogda "ertaroq" deb sarlavhalangan) radifli g'azal bor. G'azal matla'i quyidagicha:

*Holi zorimni so'rab, jonim sanam, kel ertaroq,
G'am yuki birla qadimni qilma xam, kel ertaroq.*

G'azal matni boshqa hujjatlardagidan farqli o'laroq, bir varaq qog'ozga kirill yozuvida ko'chirilgan. Matn 8 bayt, hujjat ta'mirlangan, mashinkada terilgan, yili ko'rsatilmagan. Umuman, shoir arxivida arab, lotin va kirill imlosida kitobat qilingan matnlarni uchratish mumkin.

Arxivda, bundan tashqari, o'zbek tilidagi she'rlar bilan bir qatorda fors-tojik, tatar tilidagi nazm namunalarini ham o'rin olgan. Jami sakkizta hujjatdagi she'rlar fors-tojik tilidadir. Bularning birinchisi 17-raqamli hujjatda keladi. Shoir asarlari nashrlarida berilmagani uchun she'r matni to'liq keltirildi:

Bar nafsi bad moro, iloho, muftalo makun,
Bo qahri xud, yo rab, giriftori balo makun.

Gashte bar oh, nafsi bad toat nakardeam,
Bo in gunoh, sharmandai ro'zi jazo makun.

Doram umed, az karami daryoi rahmatat,
Yak qatreash darig'i do'stpo makun.

Fardo bo in ro'yi siyah, holon chi meshavad,
Yo rab, tu az shafoti Ahmad judo makun.

Matn qora siyohda yozilgan bo'lib, jami 8 misradan iborat. Ushbu hujjatning orqa sahifasida Hamzaning onasiga yozgan o'zbekcha she'ri bor. Varaqning tepasiga "1909 g." deb qizil qalamda yozilgan. Shunga asosan yuqoridagi she'r sanasini ham 1909-yil deb ko'rsatish mumkin.

18-raqamli hujjatda fors-tojik tilidagi ikki ruboiy berilgan. Bu ruboiylar matni shoirning "To'la asarlar to'plami"ga ham kiritilgan [4: 292].

Arxivda fors-tojik tilidagi jami sakkiz ruboiy va ikki g'azal (№17, 18, 25, 26, 31, 34, 63, 102 hujjatlar) mavjud. Yana sakkizta hujjatda (№95, 96, 97, 98, 99, 100, 101, 106) tatar tilidagi she'rlarni uchraydi. Bular 6 ta ruboiy va ikki alohida baytni tashkil qiladi. Shoir arxivdagi 120 hujjatning 16 tasi fors-tojik va tatar tilida, qolgan 104 tasi o'zbek tilidagi she'rlardir.

Hamza Hakimzoda asarlarining qo'lyozmalarini o'rganish asosida ilmiy jamoatchilikka shu paytgacha ma'lum bo'lmagan asarlarini aniqlash, shoirning "To'la asarlar to'plami"ga kirmagan lirik she'rlarini ilmiy muomalaga olib kirish, ularni tahlil va tadqiq etish, mafkura talabiga ko'ra qisqartirilib, "g'oyaviy tahrir" chig'irig'idan o'tkazilib nashr qilingan she'rlarining asliyatga muvofiq matnlarini tiklash, shoir she'riy asarlarining qiyosiy-matniy tadqiqini amalga oshirish kabi masalalar haligacha dolzarb bo'lib qolmoqda. Hamza she'riyatini zamonaviy ilmiy talablar asosida qayta tadqiq etish, uni mafkuraviy qoliplardan xoli ravishda baholash va asl manbalarga tayanib o'rganish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamajonov S. Barhayot Hamza. – Toshkent: Fan, 1991.
2. Qosimov B. O'zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.
3. Hamza Hakimzoda Niyoziy. To'la asarlar to'plami. Besh tomlik. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1988.
4. Hamza Hakimzoda Niyoziy. To'la asarlar to'plami. Besh tomlik. 2-tom. – Toshkent: Fan, 1988.
5. Hamza Hakimzoda Niyoziy arxivining katalogi. Uch tomlik. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1990.